

**FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING SURXON VOHASIGA KO'CHIRILISHI
SABABLARI, DAVRIY BOSQICHLARI VA JOYLASHISH XUSUSIYATLARI (1925-
1941-YILLAR)**

Eshmo'minov Ozodbek Ziyodulla o'g'li

Termiz davlat universiteti "Jahon tarixi"

kafedrasida stajor-o'qituvchisi

Anotatsiya: Sovet davlatining O'zbekistonda aholini ko'chirish siyosati XX asrning birinchi choragida amalga oshirilgan siyosiy tadbirlardan biri hisoblanadi. XX asr insoniyat uchun qirg'inlar, qatag'onlar, surgunlar asri hamdir. Agar birgina sovet davrida xalqqa nisbatan adolatsizliklarni, jinoyatlarni ko'z oldingizga keltirsangiz, dahshatga tushmay ilojingiz yo'q. Xalqning boshini silash, farovon hayotini ta'minlashi zarur bo'lgan rahbarlar, el-yurt oldidagi vazifasini bajarmay, aksincha, xalq boshiga og'ir kunlarni solib, turli aldovlar va bo'xtonlar bilan asirlar davomida yashab kelgan tarixiy joylaridan boshqa joylarga ko'chirib ularni ne-ne azoblarga duchor qildilar.

Tayanch so'zlar: Yangi yerlar o'zlashtirilishi, aholi migratsiyasi, aholi ijtimoiy turmush darajasi, ko'chirilgan xo'jaliklar ijtimoiy ahvoli, paxtachilikni rivojlantirish, aholi demografiyasi.

Annotation: The Soviet state's policy of population resettlement in Uzbekistan is one of the political measures implemented in the first quarter of the 20th century. The 20th century is also the age of massacres, repressions and exiles for humanity. If you bring to mind the injustices and crimes against the people during the Soviet era, you cannot help but be horrified. The leaders, who are supposed to care for the people and ensure their comfortable life, do not fulfill their duty to the country, but on the contrary, they make difficult times for the people and move them to other places from their historical places where they have lived for many years with various deceptions and frauds. they made them suffer.

Key words: Development of new lands, population migration, social standard of living of the population, social condition of displaced households, development of cotton cultivation, population demography.

Аннотация: Политика советского государства по переселению населения в Узбекистане является одной из политических мер, реализованных в первой четверти XX века. XX век – это также эпоха массовых убийств, репрессий и изгнаний человечества. Если вспомнить несправедливости и преступления против народа в советское время, то невозможно не ужаснуться. Руководители, которые должны заботиться о

народе и обеспечивать его комфортную жизнь, не выполняют свой долг перед страной, а наоборот, усложняют жизнь народу и перемещают его из исторических мест, где он находится, в другие места. Жили много лет с различными обманами и мошенничествами, они заставляли их страдать.

Ключевые слова: Освоение новых земель, миграция населения, социальный уровень жизни населения, социальное положение переселенных домохозяйств, развитие хлопководства, демография населения.

Aholini ko'chirish siyosati Yer ishlari xalq komissariati tomonidan ixtiyoriy (ayrim hollarda "ixtiyoriy-majburiy") asosda o'tkazilgan. Aksariyat hollarda hukumat tomonidan tashkil etiladigan aholini ko'chirishlar aholi migratsiyasining bir ko'rinishi bo'lgan. Kamdan-kam holda stixiyali bo'lgan.

"Aholi migratsiyasi - aholining yashash joyini o'zgartirishi bilan bog'liq ko'chish. Aholi migratsiyasi aholining muhim muammolaridan bo'lib, unga kishilarning oddiy mexanik ko'chish harakati deb emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy hayotning ko'p tomonlarini qamragan murakkab ijtimoiy jarayon sifatida qaraladi. Aholi migratsiyasi aholining joylashishi, yerni xo'jalik jihatdan o'zlashtirish, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, irqalar, tillar va xalqlarning paydo bo'lishi va aralashib ketish jarayonlari bilan bog'liq". [6:B.565-566]

Sovet davlati o'zining bunday siyosatini mamlakatdagi tabiiy boyliklar hamda hali o'zlashtirilmagan unumdor yerlarning ko'pligi bois aholini ko'chirish orqali ularni o'zlashtirish, paxta maydonlarini kengaytirish, demografik muommoni hal qilish bilan izohlaydi, aholini ko'chirishlar orqali tabiat va jamiyatda namoyon bo'lgan ushbu "xatoliklarni" to'g'rilamoqchi bo'ladi.

N. Platunov asarida shunday deyiladi: "Chorizm o'zidan yaxshi rivojlanmagan, mamlakat hududida haddan tashqari nomutanosib va noratsional joylashgan ishlab chiqaruvchi kuchlarini meros qilib qoldirdi.

Xalq xo'jaligini sotsialistik asosda o'zgartirish mamlakat iqtisodiyotining umumiy o'sishinigina emas, balki ishlab chiqaruvchi kuchlarni qayta joylashtirishni, Rossiyaning qoloq chekka o'lkalariga taraqqiyotni olib borishni taqozo etadi. [7:B.3]

Aslini olganda Sovet davlatining aholini ko'chirish sabablarini shundan iborat deb bo'lmaydi. Sovetlar yangi yerlarni o'zlashtirish orqali paxta ekin maydonlarini ko'paytirish shu orqali paxta mustaqilligini qo'lga kiritish, chekka chegara hududlarga aholini ko'chirib chegaralarni mustahkamlash

va undan tashqari aholisi zich bo'lgan va doimiy hukumatga qarshiliklar qilib turgan vodiylarni qo'rquvda ushlab turishni maqsad qilgan.

O'zbekistonda aholini ko'chirish siyosati 1925 yil 10 apreldagi "SSSR Markaziy Ijroiya Qumitasi qoshida Butunittifoq Ko'chirish Qo'mitasini tashkil etish haqida"gi hamda SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Prezidiumi qarori va 1927 yil 21 fevraldagi O'zSSR Markaziy Ijroiya Qumitasi va Xalq Komissarlari Sovetining "O'zbekiston SSRda aholini ko'chirishni respublika bo'ylab rejali o'tkazilishi haqida"gi qarori asos bo'ldi. [4:B.215]

Mazkur qarorlarda Butun ittifoq Ko'chirish Komitetining funksiyalari va uning O'zbekiston SSRdagi aholini ko'chirish bo'yicha vazifalari, maqsadlari va ko'chiriladigan xo'jaliklar uchun imtiyozlar belgilab berilgan. O'zbekiston SSRda aholini ko'chirish ishlari Yer ishlari xalq komissarligi, uning qoshidagi ko'chirish bo'limi tomonidan amalga oshirilgan. Ko'chirish tadbirlariga bevosita rahbarlik O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qumitasi raisi Yo'ldosh Oxunboboev zimmasiga yuklatilgan". [5:B.214]

Surxondaryo vohasiga ko'chirib keltirilgan vodiylar aholilar bizni Yo'ldosh Oxunboboev ko'chirgan degan so'zlari yuqoridagi qarorlarning ifodasidir. 1928-yilda O'zbekiston SSR Oliy Sovet Raisi Yo'ldosh Oxunboboev tashabbusi bilan Andijon viloyatidagi Tuvadoq va Mirzovod mahallalarining aholisini Surxondaryo viloyatining Uzun tumaniga ko'chirgan.[9]

Aholini ko'chirish siyosati davomida ko'chirilganlardan mehnat resursi sifatida foydalanilgan, bu jarayon aksariyat hollarda ixtiyoriy bo'lgan, ko'chirilganlar ichida boy quloqlar, o'rtaxol qatlamlar bo'lsada, asosan ularning katta qismini kambag'al dehqonlar tashkil qilgan. Bundan tashqari vagonlarga qidiruvda bo'lgan jinoyatchilar, mullalar, o'sha joylarni ko'rib kelaylik degan qiziquvchilar ham vagonlarga chiqib olishgan. [10]

Yo'ldoshev Ahmadqul XXX 1948-yil 25-martda Surxondaryo viloyati Denov tumanida tug'ilgan. Kaspi o'qituvchi. 1967-1972-yillarda Farg'ona pedagogika institutini tamomlagan. Otalari Yo'ldosh qori , onalari Toshmatova Meliniso Madaminovna 1910-yilda tug'ilgan. 1929-yilda Farg'ona viloyati Rishton tumani Oqer qishlog'idan faqatgina ota-onasi ustidagi kiyimlari bilan hech vaqosiz Surxondaryo viloyati Denov tumaniga ko'chib kelishgan. Ko'chib kelishga sabab otalari mulla bo'lgan Quronni yoddan bilgan inson bo'lganlar. Biz tarixdan bilamizki u paytlarda ilimli insonlarni, din ulamolarini, aholining o'ziga to'q qismini Sovet hukumati quloq qilib chekka hududlarga surgun qilib yuborgan. Ular ham Sovet hukumatining qora ro'yxatiga tushib qolishdan qo'rqib hamma narsalarini tashlab poyizda Surxondaryoga kelgan. Dastlab ular Denov tumanidagi Oloviddin degan qishloqqa joylashgan. [11]

1929 yil 8 aprelda davlatning din ustidan nazoratini kuchaytiruvchi qonun qabul qilindi. Konstitutsiyaning 13-bandiga tuzatish kiritildi. Diniy targ'ibot amalda davlatga qarshi jinoyat deb qaraladigan bo'ldi. Ruhoniy xizmatchilar va ularning oilalari fuqarolik huquqidan mahrum qilindi. Mahrum qilinganlar oziq-ovqat kartochkalaridan, tibbiy yordamlar, kommunal uy joylaridan foydalanish huquqiga ega emas edi. Ular farzandlarining maktab va oliy o'quv yurtlariga kirishlari man qilindi. Ruhoniylarning bolalari o'qish va hayot kechirish uchun o'z ota-onalaridan voz kechishga majbur bo'lganlar. Cherkovlar, masjidlar, tarixiy yodgorliklar buzildi. Yetti kunlik hafta tugatilib, besh kunlik hafta joriy etildi, to'rt kun ish kuni, beshinchi kun dam olish kuni bo'lib qoldi.[8:B.25]

Sovet davlatining qabul qilgan yuqoridagi qonuni ham fikrimizni dalillaydi.

Tursunov Yusufjon Halimovich 1956-yil 19-dekabrda Surxondaryo viloyati Termiz tumani Tinchlik mahallasida tug'ilgan. Suhbatdoshimizning so'zlariga ko'ra bobosi Tursun bobo katta mulla bo'lgan. Ular sovet hukumati amaldorlaridan qochib 1935-yil Termiz tumani Namuna kolxoziga kelib joylashadi, ammo, oradan bir yil o'tib poezga minayotganda poezd harakatlanib oyog'ini bosib ketadi va kasalxonada vafot etadi. Shundan so'ng Tursun boboni shu atrofdagi tepalikka dafn qilib o'g'illari shu yerni o'zlashtirib Halimjon tursunov mahallasini barpo qiladi. Bu mahallaga keyinchalik Namangan viloyati Chust tumanidan 80 xo'jalik ko'chib keltirilgan va ularning kuchi bilan bu yerda katta-katta yerlar g'isha va qamishlardan tozalanib, o'zlashtirilib paxta ekilgan. Suhbatdoshimizning so'zlariga ko'ra otasi Halimjon Tursunov boshchiligida vodiylilar o'zlari uchun turarjoylar barpo qilishgan, ariqlar qazib paxta dalalarini sug'orishgan. [12]

Sovet davlatining O'zbekistonda o'tkazgan aholini ko'chirish siyosatidan ko'zlagan asosiy maqsadi yuqorida takidlab o'tkanimizdek yangi yerlarni o'zlashtirish orqali paxta ekin maydonlari kengaytirib paxta mustaqilligini qo'lga kiritishdan iborat bo'lgan. Bir vaqtning o'zida Farg'ona vodiysining aholi zich yashaydigan hududlaridagi aholini, aholi siyrak yashaydigan hududlarga, jumladan, Surxondaryoga ko'chirish orqali demografik muommoni hal qilish, chegara hududlari aholisini madaniyatliroq, aholi sonini ko'paytirish orqali chegara mudofasini ishonchliroq qilish, chorvador aholiga dehqonchilikni o'rgatish, yangi kolxozlarni tashkil qilishni maqsad qilgan.

Yuqoridagi vazifalar orasida ayniqsa mamlakat paxta mustaqilligini ta'minlash masalasi eng muhimi hisoblangan.

Sovet davlatida paxta mustaqilligini ta'minlash hukumatning chet davlatlardan paxta sotib olmaslik, eng yirik tarmoqlardan hisoblangan

to'qimachilik sanoatini chet el xom ashyosiga qaramlikdan xalos qilish, o'z paxtasiga ega bo'lish maqsadi bilan bog'liq chora-tadbirlardan bo'lib, bu masala Rossiya imperiyasi davridayoq kun tartibiga qo'yilgan edi. [2:B.19] Mamlakatda paxta xomashyosini yetishtirish yil sayin ortib borgan bo'lsada, paxta bo'lgan talab ham shunga mutonosib oshib bordi. Rossiya oktabr to'ntarilishiga qadar ham chet el paxtasiga qaramlikdan chiqolmadi. Aholini ko'chirish, yangi yerlarni o'zlashtirish, yangi sug'orish tarmoqlarini barpo qilish bularning barchasi juda katta mablag' talab qilardi.

Sovet davlati paxta mustaqilligiga erishishning birdan-bir to'g'ri yo'li sifatida Turkiston o'lkasida paxta dalalarini ko'paytirish va paxtachilikni rivojlantirish deb hisoblaydi.

TASSR Xalq xo'jaligi Oliy kengashida paxtachilikni tiklash va uni moliyalashtirish bo'yicha komissiyaning (1919 yil 2 yanvar) ma'ruzasida shunday deyilgan edi: «Deyarli yalang'och ishchi va kambag'al dehqonlarni kiyim bilan ta'minlashda Rossiyaning barcha umidlari Turkistondan, Turkiston sovet respublikasi uchun ushbu ishonchni oqlash or-nomus masalasidir». [1:B.29]

O'zSSR xukumatining 1925 yil 31 yanvardagi «Ekin kompaniyasini o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorida esa shunday deyiladi: «O'zbekiston tabiiy sharoiti faqat bug'doy, sholi, jo'xori, makkajo'xori, beda kabi ekinlarnigina emas, balki paxta, kunjut kabi qimmatbaho, texnikaviy hamda sanoat ekinlarini ham ekishga imkon beradi. Bu ekinlar ichida eng muhimi paxtadir. O'zbekiston paxtaning SSSR xududidagi asosiy va deyarli yagona yetishtirib beruvchisidir. Agar bu yerda kerakli darajada paxta ekilmasa, ittifoqning manufaktura fabrikalari to'xtab qoladi, yoki davlatimiz paxtani chet el bozorlaridan qidirib, bu bilan o'zining dushmanlari bo'lgan imperialistik davlatlarga qaram qilib qo'yadi». [3:B.126]

Rossiyaning agrar soxada tutgan siyosati sovet davlati davrida ham o'zgarishsiz qoldi. Bu davrga kelib Sovet davlati ulkan boylik to'plagandi. Ularning naznida aholini ko'chirish tadbirlarini amalga oshirishning ayni vaqti edi. Sovet davlati Rossiya imperiyasi davridagi tajribalarga, g'oyalarga, loyixalarga amal qilib paxtachilikni rivojlantirishda o'sha davr olimlari bilimiga va tajribasiga tayandi. Ularning firicha zichligi yuqori hududlardagi aholini, aholi siyrak hududlarga ko'chirish orqali qarovsiz yotgan yerlarni o'zlashtirish va paxta dalalarini kengaytirish bilan paxta mustaqilligiga erishish mumkin deb hisoblaydilar. Aholini ko'chirishda faqatgina zo'ravonlikka tayanib ish olib borish mumkin emasdi, demak ko'proq xalqning tashabbuskorligi, kuch-g'ayratiga umid bog'lash kerak, shu asnodda, aholi orasida targ'ibot-tashviqot ishlari olib borildi. Farg'ona vodiysi aholisining

ko'chirilishiga asosiy sabab hududda zichlik yuqori, undan tashqari vodiyliliklar ko'p yillik usta paxtakorlar sanalardi. Sovet davlatining olib borgan bu siyosati vohada yangi-yangi kolxozlarning tashkil etilishiga olib keldi, ammo, ko'chirilganlarga yetarli shart-sharoit yaratib berilmadi. Ularga turarjoy, kasalxona, maktab, oziq-ovqat, kiyim-kechak, mehnat qurollari bilan yetarlicha taminlanmadi. Bu esa ko'chib kelgan aholining nihoyatda og'ir sharoitlarda yashashga majbur bo'ldi. Natijada ko'chib kelganlarning 65 % i oldingi joylariga qaytib ketishiga sabab bo'ldi. Qolganlari esa mana shunday qiyin sharoitlarda qo'l kuchi bilan dalalarni o'zlashtirib paxta ekib yuqori sentnerdan hosil olib hukumat topshirig'ini bajardilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Deyatelnost Kommunisticheskoy partii po vosstanovleniyu i razvitiyu xlopkovodstva v Turkestane (1917-1924gg.) (dok-ty i mat-ly) T.1. - Tashkent Uzbekistan, 1983. – S.29.
2. Gadjiganskiy X Xlopkovodstvo v Rossii (ekonomicheskii ocherk). - Moskva. Tipografiya Bertы Smirnovoy, 1915, - S. 19.
3. Mamedov A M Razvitie irrigatsii v Uzbekistane - Tashkent: Fan, 1967,- S. 126
4. Murtazaeva R. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik.T.: "MUMTOZ SO'Z",2019 y. B.215
5. Murtazaeva R. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik.T.: "MUMTOZ SO'Z",2019 y. B.214
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. -Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000,-B. 565- 566.
7. Platunov N.I. Pereselencheskaya politika Sovetskogo gosudarstva ... - S 3
8. Rustambek Shamsutdinov Qishloq Fojeasi jamoalashtirish, quloql ashtirish, surgun (O'rta Osiyo respublikalari misolila) «sharq» nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati toshkent – 2003 25-b.
9. Dala tadqiqotlari Qo'ldoshev Maqsudali 96 yoshda Uzun tumani "Yangi kuch" mahallasi..
10. Dala tadqiqotlari Soliev Muxammadijon 74 yosh Uzun tumani "Yangi kuch" mahallasi.
11. Dala tadqiqotlari Yo'ldoshev Ahmadqul 74 yosh Denov tumani "Vodiy" M,F,Y.
12. Dala tadqiqotlari Tursunov Yusufjon Halimovich 66 yoshda Termiz tumani "Tinchlik" mahallasi.

13. Rahmonov, M. (2023). TRADITIONAL LIFESTYLE OF THE TOKCHI PEOPLE OF SURKHAN OASIS. *Modern Science and Research*, 2(4), 720-722.
14. Rahmonov, M. (2023). Surxon vohasi toqchi qavmlari hududiy joylashuvining ilmiy tahlili. *Марказий Осиё тарихи ва маданияти*, 1(1), 341-344.
15. Холмуминов, Х. Э., & Эшмуминов, О. З. (2022). ПРОБЛЕМЫ В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ПЕРЕСЕЛЕННОГО НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ (1925-1941 ГГ.). *Бюллетень науки и практики*, 8(1), 286-289.
16. ХОЛМУМИНОВ, Х. Э., & ЭШМУМИНОВ, О. З. (2022). ПРОБЛЕМЫ В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ПЕРЕСЕЛЕННОГО НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ (1925-1941 ГГ.). *БЮЛЛЕТЕНЬ НАУКИ И ПРАКТИКИ* Учредители: Овечкина Елена Сергеевна, 8(1), 286-289.
17. Холмуминов, Х. Э., & Эшмуминов, О. З. ПРОБЛЕМЫ В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ПЕРЕСЕЛЕННОГО НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ (1925-1941 гг.).
18. Raimov M. BOUT THE HISTORY OF THE INDEPENDENCE OF TERMIZ FROM THE CHIGATOY SHARE // *Modern Science and Research*. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 1150-1154.
19. Safar o'g'li, R. M. (2023). TERMIZNING CHIG 'ATOY ULUSI TARKIBIDAN MUSTAQILIKKA CHIQISH TARIXI HAQIDA.
20. Bobirovna, Radjabova Sabohat. "AYOLLAR SALOMATLIGINI MUHOFAZASI DAVLAT DASTURLARIDA." (2023).
21. Тошов, К. Т. (2021). Героизм Жителей Сурхандарьинской Области В Годы Второй Мировой Войны. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY*, 2(3), 91-96.